

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH**Omonova Muxlisa Do'snazar qizi**

Alfraganus universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи
dotsent v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

muxlisa.alfraganus@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14916965>

Tanqidiy fikrlashni o‘rgatish kurslarining o‘ziga xos umumiy xususiyati va ularni birinchi va ikkinchi yondashuvlar doirasida tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri bu turli xil bilim sohalaridan va kundalik hayotdan olingan “tabiiy” fikrlashning haqiqiy misollaridan foydalanish, ya’ni olingan bilimlarni tanqidiy fikrlash sohasida qo‘llash muammosi ushbu kurslarda birinchi o‘rinda turadi.

Ilmiy pedagogik manbalarni o‘rganish yuqorida tavsiflangan yondashuvlarga qo‘srimcha ravishda, talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning yana bir varianti - partsial ta’lim modeli doirasida amalga oshirilishi mumkin (V.V.Alekseev, Yu.S.Davыidov, I.V.Poberejnikov, L.L.Suprunova). Ushbu modelning mohiyati shundaki, o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan material o‘quv kursining barcha mavzulariga ma’lum g’oyalar, tushunchalar, qadriyatlar, bilish faoliyati metodlari shaklida kiritiladi [2]. Partsial modelning afzallikkari, bizning fikrimizcha, uni o‘quv jarayoniga tatbiq etish kursning mantiqiyligi va tuzilishini buzmasdan, aniq tuzilgan mazmunga asoslangan holda ma’lum ketma-ketlikda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Partsial model doirasida ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: talaba shaxsini rivojlantirish, umumiy metodik madaniyat va ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, dalillar, tushuntirishlar, gipotezalarni tahlil qilish, fanlararo aloqalarni o‘rnatish orqali dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim metodlari va texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish [1].

S.I.Zair-Bek va I.V.Mushtavinskayalar tanqidiy fikrlashni qo‘llovchi insonlarga xos xususiyatlarga quyidagilarni kiritadilar:[3]

1. Rejalashtirishga tayyorlik. Har doim ta’lim oluvchilar to‘g’ri o‘ylashga ulgurmasdan savolga javob berishni boshlaydilar. Rejalashtirish tanqidiy fikrlash yo‘lidagi birinchi va juda muhim qadamdir.

2. Moslashuvchanlik. Moslashuvchan pozitsiya yangi variantlarni ko‘rib chiqish, o‘z nuqtai nazarini o‘zgartirish istagini o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlovchi yangicha fikrlashga, ravshan narsalarni qayta ko‘rib chiqishga tayyor va u hal etilgunga qadar vazifadan chekinmaydi.

3. Qat’iylik. Qat’iylik aqliy kuch talab qiladigan vazifani bajarishga tayyorlik bilan chambarchas bog’liq. Fikrlash insondan sabr va matonat talab qiladigan mashaqqatli ish.

4. O‘z xatolarini tuzatishga tayyorlik. Odamlar o‘z harakatlarini samarasiz deb bilishlari va ularni rad etishlari, yangilarini tanlashlari va fikrlashlarini yaxshilashlari mumkin.

5. Anglash. Psixologlar bu sifatni metabolish yoki metabolish monitoringi deb atashadi. Bu maqsad sari harakatlanayotganda o‘z harakatlarini kuzatishni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlovchilar o‘zlarining fikrlash jarayonini o‘z-o‘zini anglash odatini rivojlantiradilar.

6. Murosa yechimlarini izlash. Zamonaviy dunyoda faoliyatning guruh shakllari ustunlik qiladi. Tanqidiy fikrlovchi ham yaxshi rivojlangan muloqot ko‘nikmalariga, ham ko‘pchilikni qoniqtiradigan yechim topish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak

Talabalar tomonidan tanqidiy fikrlashni o‘zlashtirishda mashqlarning metodik tizimini tayyorlash, fikrlash qobiliyatları va aqlning tanqidiyligini qayta ishlashga qaratilgan ijodiy vazifalar ta’lim jarayonining texnologik asoslanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Shuningdek o‘qituvchi uchun talabalarning yosh xususiyatlarini, qobiliyatini va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashning diagnostika metodlarini ishlab chiqish zarur. Ta’lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning fanlararo texnologiyalarini joriy etish; ushbu texnologiyalarning uzlusizligini amalga oshirish muhim.

Tanqidiy fikrlash odatda amaliy yo‘nalishga ega. Shu sababli, uni fikrlash kontekstida va fikrlash sub’ektining individual xususiyatlariga qarab ko‘rib chiqiladigan amaliy mantiq shakli sifatida talqin qilish mumkin.

Tanqidiy fikrlash doirasida muayyan gumanitar, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-ilmiy sohalarda fikr yuritish amaliyotini tahlil qilish, fikrlash sub’ektining sub’ektiv, shaxsiy omilini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, fikrlash jarayonida har xil turdagи xatolar tahlillariga e’tibor beriladi.

Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u kasbiy faoliyat sohasidan qat’i nazar, fikrlashni tahlil qilish va qurish, bilimlarni o‘zlashtirishni “o‘rgatadi”. Uning doirasida “Qanday qilib?”, “Qachon?” va “Nima uchun?” kabi savollar o‘rganiladi, tadqiqotning umumiy kontekstida muayyan xulosalar chiqariladi.

Yuqorida yoritib berilgan “O‘qituvchining tanqidiy fikrlashi” tushunchasining mazmuni nazariy-metodologik bilimlar tizimi sifatida asosiy atamalar (fikrlash, refleksiya, pedagogik va tanqidiy fikrlash), maqsadga erishish vositalari va metodlarini (metodlari, usullari, shakllari, vositalari, tanqidiy fikrlash) pedagogik fikrlashning toifali doirasida bilish zarurligini isbotlaydi. Nazariy bilim o‘qituvchiga ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni hal

qilish, o‘z faoliyatini rejalshtirish va amalga oshirish, uning borishini nazorat qilish, zarur tuzatishlar kiritish va uning natijalarini baholash imkonini beradi.

Pedagogik harakatlar idrok etish, tasvirlash, tushuncha va boshqalarda ochiladigan ob’ektga qaratiladi. Tushuncha haqida gapirganda, biz tushunchaning o‘zini emas, balki uning mazmunini, unda nimani yoritib berishini nazarda tutamiz. Tushunchaning o‘zi, sub’ekt harakatni amalga oshirishda nimani boshqaradi, ya’ni bu harakatning tarkibiy qismidir. Maktablarda, universitetlarda va amaliy hayotda talabalarga o‘qitiladigan narsalarning turli xil mazmuni ichida harakat markaziy bo‘g’indir.

REFERENCES

1. Oybek Khayitov, Gulasal Berdalieva , Shoira Abdullayeva , Gulrukhsor Sharipova. Improvement Of Pedagogical Mechanisms Of Application And Management Of The Principle Of Integrity In The System Of Training Of Physical Education And Sports Specialists. (2022). Journal of Pharmaceutical Negative Results, 5019-5022. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S07.620>
2. Rohnert, Park, C A: Center for Critical Thinking and Moral Critique Texte. / Park Rohnert. Sonoma State University, 2003. - 305 p.
3. Vaughan L.L. (1986). Reading and Reasoning Beyond the Primary Grades Texte. / L.L.Vaughan, E T.H.stes. Boston: Allyn & Bacon (Ed. By Ch.Temple, K.Meredith and J.Steel, 1997). - 198 p.